



JURNALISTIKADA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: MEDIA AMALIYOTIDA AVTOMATLASHTIRILGAN KONTENT TAHLILI

Abdusalimzoda Zebuniso Muxammadali qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

4-bosqich talabasi

E-mail: zebuniso2405@gmail.com

ORCID: 0009-0001-7607-1310

Annotatsiya: So'nggi yillarda sun'iy intellekt jurnalistikani o'zgartirmoqda. Biznes va mahalliy jurnalistikada ma'lumotlar ko'pligi va resurs cheklovlari AI talabini oshiradi. Ushbu maqolada "Associated Press" va "BBC News Labs" misolida AI asosidagi avtomatlashtirishning kontent ishlab chiqarish samaradorligi va media tashkilotlariga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, biznes jurnalistika, avtomatlashtirilgan jurnalistika, case study

Annotation: In recent years, artificial intelligence has been transforming the journalism industry. In business and local journalism, the abundance of data and limited resources increase the demand for AI. This article analyzes the impact of AI-based automation on content production efficiency and media organizations, using the Associated Press and BBC News Labs as examples.

Keywords: artificial intelligence, business journalism, automated journalism, case study

Аннотация: В последние годы искусственный интеллект преобразует журналистику. В деловой и местной журналистике изобилие данных и ограниченные ресурсы увеличивают спрос на ИИ. В этой статье анализируется влияние автоматизации на основе ИИ на эффективность производства контента и работу медиакомпаний, на примере Associated Press и BBC News Labs.

Ключевые слова: искусственный интеллект, деловая журналистика, автоматизированная журналистика, кейс-стади

KIRISH

Sun'iy intellekt texnologiyalari, ayniqsa so'nggi yillarda, media sohasini tubdan o'zgartirib, yangiliklar yig'ishdan tortib, kontent yaratishgacha bo'lgan jarayonlarda qo'llanilmoqda (Baloch, Hassan, & Hassan, 2024, p. 273). Raqamli transformatsiya jarayoni jurnalistikani nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va tahririy jihatdan ham qayta shakllantirmoqda. An'anaviy media modellarning inqirozi, reklama daromadlarining kamayishi va auditoriya e'tiborining fragmentatsiyasi ommaviy axborot vositalarini yangi yondashuvlarni izlashga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt jurnalistikada samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va auditoriya bilan aloqani mustahkamlash imkonini beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, mahalliy va biznes jurnalistikada sun'iy intellektning integratsiyasi media jarayonlarida sezilarli paradigmaviy o'zgarishlarni yuzaga keltirib, operatsion samaradorlik,





auditoriya bilan o'zaro aloqalar hamda barqaror iqtisodiy modellarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda (Sjøvaag, 2024, p. 246). Bu jarayon jurnalistlarning roli, axborot sifati va media tashkilotlari bilan auditoriya o'rtasidagi munosabatlarni qayta talqin qilish zaruratini tug'diradi (Sonni, Hafied, Irwanto, & Latuharu, 2024, p. 1554). Biznes jurnalistikasi esa statistik ma'lumotlar, moliyaviy hisobotlar va iqtisodiy ko'rsatkichlarga tayanganligi sababli sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun ayniqsa qulay yo'nalish hisoblanadi. AI jurnalistikada yangiliklarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatishning barcha bosqichlarida qo'llanilib, jarayonni to'liq avtomatlashtirish emas, balki jurnalistlar bilan hamkorlikda ishlaydigan yordamchi vosita sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ko'plab media tashkilotlar sun'iy intellektidan foydalanib, kontent ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirmoqda. Jumladan, Shvetsiyaning yirik media kompaniyalaridan biri - "Bonnier News" "Google News Initiative" bilan hamkorlikda ishlab chiqqan "BonsAI" vositasi orqali intervyu transkripsiyasi, fontadqiqotlari va reklama vizuallarini avtomatlashtirdi. Natijada jurnalistlarning vaqt sarfi qisqarib, ijodiy ishlarga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyati yaratildi. Ushbu loyiha media tashkilotlar uchun sun'iy intellektning iqtisodiy va tahririy samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning media sohasiga kirib kelishi reklama va kontent ishlab chiqarish jarayonlarida yangi vositachilar va biznes modellarni shakllantirmoqda (Gutiérrez-Caneda, Vázquez-Herrero, & García, 2023, p. 2). Ayniqsa, daromadlari qisqarib borayotgan mahalliy media tashkilotlari uchun AI iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda (Wilczek, Haim, & Thurman, 2024, p. 207). Shu jihat mahalliy OAVlar uchun eng muhim masala bo'lib, har bir loyiha kontekstiga mos strategik reja talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt mahalliy media tashkilotlariga iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi, biroq texnologiyani joriy etishda qaysi yo'nalishlarda eng katta qiymat yaratilishini aniq belgilash muhim hisoblanadi (Wilczek et al., 2024, p. 207). Generativ AI modellarining joriy etilishi jurnalistik ish jarayonlari va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirib, uning imkoniyatlari va cheklovlarini tizimli tahlil qilishni talab qiladi (Prien & Goldhammer, 2024, p. 273).

METODOLOGIYASI

Shu bois, ushbu tadqiqotda sun'iy intellektning jurnalistik amaliyotga ta'sirini har tomonlama o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Mazkur tadqiqotda case study (amaliy holatlarni o'rganish) metodidan foydalanildi. Ushbu metod real media tashkilotlari tajribasini chuqur va tizimli tahlil qilish orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining jurnalistikadagi amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi. Case study yondashuvi turli media modellarini solishtirish va umumiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida sun'iy intellektidan foydalanilgan ikki yirik media tajribasi tanlab olindi:

"Press Association RADAR" va "BBC News Labs (Salco)" - biznes yangiliklar va mahalliy kontent ishlab chiqarishda yarim-avtomatlashtirish modeli. Bu tanlov, AIning global miqyosdagi yetakchi axborot agentliklari va jamoat





teleradiokompaniyalarida qanday qo'llanilayotganini ko'rsatish orqali texnologik integratsiya va uning jurnalistik amaliyotlarga ta'sirini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tahlillar va natijalar

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari media amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ayniqsa biznes va mahalliy jurnalistikada kontent yaratish va tarqatish jarayonlarini avtomatlashtirishda keng qo'llanilmoqda (Arafat & Cooper, 2025, p. 1). "Associated Press" va "Newsday" sun'iy intellektdan moliyaviy hisobotlar, kompaniya daromadlari va iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan yangiliklarni avtomatik tayyorlashda foydalanib kelmoqda. Ushbu tizimlar strukturaviy ma'lumotlar asosida qisqa, aniq va tezkor biznes xabarlarini yaratishga imkon beradi. Mazkur yondashuv jurnalistlarning vaqtini tejab, ularni murakkab iqtisodiy tahlil va izlanishga asoslangan materiallarga yo'naltirish imkonini berdi. Biznes modeli nuqtayi nazaridan esa avtomatlashtirish kontent hajmini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qildi. "BBC News Labs" tomonidan ishlab chiqilgan "Salco" (Semi-Automated Local Content) loyihasi sun'iy intellektdan lokal jurnalistikada foydalanishning samarali namunasi hisoblanadi (Hutton, 2019). Ushbu loyiha cheklangan resurslar sharoitida auditoriya uchun muhim bo'lgan mahalliy materiallar sonini oshirishga qaratilgan. "Salco" tizimi sog'liqni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida oyiga yuzlab mahalliy yangiliklarni avtomatik ishlab chiqdi. Jurnalistlar tomonidan ishlab chiqilgan shablonlar esa tahririy sifat va jurnalistik standartlarning saqlanishini ta'minladi. Ushbu tajriba sun'iy intellekt jurnalistlarni almashtirmasdan, ularning faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi. "Press Association RADAR" ("Reporters and Data and Robots") loyihasi 2017-yilda ishga tushirildi. Loyiha jamoaviy ravishda olti jurnalist va AI texnologiyasini birlashtirib, jinoyat, sog'liq, ta'lim va transport sohalaridagi ochiq ma'lumotlarni tahlil qildi va har bir hudud bo'yicha 8–9 paragrafdan iborat avtomatik yangilik maqolalarini ishlab chiqardi. Bu jarayon orqali faqat uch oy ichida 50,000 mahalliy yangilik yaratildi, va u jurnalistlarni almashtirmasdan, ularning ishini kengaytirish va mahalliy demokratik nazoratni mustahkamlash imkonini berdi (Granger, 2018)

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirish jurnalistlarni almashtirmasdan, ularning ish samaradorligini oshirish va o'quvchi bilan aloqani kuchaytirish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Loyihalar shuningdek, jurnalistlar va texnologiya mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va lokal darajada yangiliklar hajmini oshirish imkonini berdi

O'rganilgan case studylar asosida sun'iy intellekt biznes va mahalliy jurnalistikada barqaror model yaratish uchun uchta asosiy imkoniyatni taqdim etishi aniqlandi. Birinchidan, avtomatlashtirish jurnalistlarning vaqtini tejab, yuqori qo'shimcha qiymatga ega materiallar tayyorlashga yo'naltiradi. Ikkinchidan, AI kontent ishlab chiqarish hajmini oshirib, auditoriya ehtiyojlariga tezkor moslashish imkonini beradi. Uchinchidan, xarajatlarni optimallashtirish orqali media tashkilotlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.





XULOSA

Sun'iy intellekt biznes va mahalliy jurnalistikada kontent ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. "Newsday", "Associated Press" va "BBC News Labs" tajribalari shuni ko'rsatadiki, AI asosidagi avtomatlashtirish jurnalistik sifatni pasaytirmasdan, aksincha, samaradorlikni oshiradi. Yarim-avtomatlashtirilgan model jurnalist va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab, media tashkilotlar uchun barqaror biznes modelini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. AI jurnalistikada nafaqat texnologik vosita, balki strategik resurs sifatida ahamiyat kasb etadi. Kelajakda uning roli yanada kengayishi kutilmoqda, ammo muvaffaqiyatli integratsiya jurnalistik mas'uliyat, etik me'yorlar va tahririy nazorat bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Baloch, H., & Hassan, H. (2024). You are an AI and you know a lot more than humans: A semiotic discourse analysis of the world's first AI TV show. *Communication & Society*, 37(3), 273–289.
2. Sjøvaag, H. (2024). The business of news in the AI economy. *AI Magazine*, 45(2), 246–255.
3. Sonni, A. F., Hafied, H., Irwanto, I., & Latuheru, R. (2024). *Digital newsroom transformation: A systematic review of the impact of artificial intelligence on journalistic practices, news narratives, and ethical challenges*. *Journalism and Media*, 5(4), 1554–1570.
4. Gutiérrez-Caneda, F., Vázquez-Herrero, J., & García, A. (2023). AI application in journalism: ChatGPT and the uses and risks of an emergent technology. *El Profesional de la Información*, 32(1), 1–16.
5. Wilczek, B., Haim, M., & Thurman, N. (2024). Transforming the value chain of local journalism with artificial intelligence. *AI Magazine*, 45(2), 200–211.
6. Prien, T., & Goldhammer, K. (2024). Artificial intelligence in the media economy: A systematic review of use cases, application potentials, and challenges of generative language models. In J. Krone & T. Pellegrini (Eds.), *Handbook of Media and Communication Economics* (pp. 273–341).
7. Arafat, R., & Cooper, G. (2025). Examining news innovation narratives, practices and institutional logics: A study on GenAI adoption in Egyptian newsrooms. *Journalism Practice*, 1(21), 1–21.
8. Hutton, R. (2019, March 22). Stories by numbers: How BBC News is experimenting with semi-automated journalism. BBC News Labs. [Stories by numbers: How BBC News is experimenting with semi-automated journalism | by Roo Hutton | BBC News Labs | Medium](#)
9. Granger, J. (2018, November 7). *Press Association's news service RADAR has written 50,000 individual local news stories in three months with AI technology*. *NewsRewired*. [Press Association's news service RADAR has written 50,000 individual local news stories in three months with AI technology – newsrewired](#)

